Аннакулов Тулкин Жовбекович, Нормонов Шамсиддин Нураддинович	
ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ И ПРОИЗВОДСТВАМИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ	892
Гулямов Шухрат Манапович	



OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH	896
<i>Xonimqulov Islom Ergash o'g'li</i>	
XIZMAT KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MODDIY-TEXNIKA RESURLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	901
<i>Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich</i>	
THE HIDE AND SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN	905
<i>Koshanov Abdimurat Azat uli, Abdimuratova Altingul Kalbayevna</i>	
SHAHAR AGLOMERATSIYALARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....	910
<i>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</i>	
MOL-MULK SOLIG'I HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	914
<i>Sh.M.Ergashev</i>	
HUDUDLARDA QURILISH OBYEKTLARINI QURILISH MATERIALLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	918
<i>Najimov Iskander Perdebayevich</i>	
TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING BOSQICHLARI.....	922
<i>Tajekeev Ziyatdin Kobeytinovich</i>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЗАТРАТАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	927
<i>Минутдинова Лилия Тагировна</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ	934
<i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>	
HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI	939
<i>Xamroqulov M.J.</i>	
UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE	944
<i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>	
YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....	949
<i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	



KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILIIY YONDASHUV

Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Osiyo davlatlarida kichik biznesni moliyalashtirish tajribalari aks etirilgan. Natijalar qiyosiy tahlil qilingan. Qo'llanilayotgan moliyaviy mexanizmlarni qiyosiy o'rganib, ularning samaradorligi baholangan. Olingan tahlil natijalari asosida kichik biznesni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, kichik va o'rta biznes, moliyalashtirish mexanizmlari, institusional modellar, Osiyo davlatlari tajribasi, bank kreditlashuvi, davlat kafolatlari, raqamli moliyalashtirish (FinTech), xalqaro moliya institutlari, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This article examines the practices of small business financing in Asian countries. Based on the obtained results, a comparative analysis is conducted. The applied financial mechanisms are comparatively studied and their effectiveness is assessed. Based on the findings of the analysis, proposals and recommendations aimed at improving the practice of small business financing are developed.

Keywords: small business, small and medium-sized enterprises (SMEs), financing mechanisms, institutional models, experience of Asian countries, bank lending, state guarantees, digital financing (FinTech), international financial institutions, economic development.

Аннотация. В статье рассматриваются практики финансирования малого бизнеса в странах Азии. На основе полученных результатов проведён сравнительный анализ. Изучены и сопоставлены применяемые финансовые механизмы, а также оценена их эффективность. По итогам проведённого анализа разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию практики финансирования малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, малый и средний бизнес, механизмы финансирования, институциональные модели, опыт стран Азии, банковское кредитование, государственные гарантии, цифровое финансирование (FinTech), международные финансовые институты, экономическое развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida kichik va o'rta biznes iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Kichik biznes aholini ish bilan ta'minlash, raqobat muhitini kuchaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va mintaqaviy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kichik biznes sub'ektlarining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan moliyaviy resurslar imkoniyatlari bilan bog'liqdir.

Bu borada, Osiyo davlatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi, moliya bozorlarining chuqurligi va davlat siyosati jihatidan xilma-xil hisoblanadi. Biroq, ushbu mamlakatlarni birlashtiruvchi umumiy jihat shundan iboratki, kichik biznesni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligidir. Ayrim davlatlarda bu jarayon davlat kafolatlari orqali, boshqalarida raqamli moliyalashtirish platformalari, xalqaro moliya institutlari yoki venchur kapital orqali amalga oshiriladi.

Osiyo mintaqasi iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, bu yerda kichik va o'rta biznes sub'ektlarining ulushi yuqori. Masalan, "Hindiston va Vetnamda kichik va o'rta biznes YalMning tegishli ravishda 60% va 45% gacha hissasiga ega"¹. Osiyoning Markaziy Qismida ham kichik biznes ahamiyati katta. Masalan, "Qozog'istonda 2025 yil 1 iyul holatiga ko'ra 2,125 million faol kichik va o'rta biznes sub'ekti bor, ular 4,43 milliondan ziyod insonni ish bilan ta'minlaydi va mamlakatning YalMga taxminan 40% yaqin hissa

1 Aziza Syzdykova, Gulmira Azretbergenova. Analysis of the Impact of SMEs' Production Output on Kazakhstan's Economic Growth Using the ARDL Method. *Economies* 2025, 13, 38. <https://www.mdpi.com/>

qo'shmoqda"². Bu ko'rsatkichlar Qozog'iston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznes sektorining muhim rolini isbotlaydi.

Bundan tashqari, "O'zbekistonda 2025 yil holatiga ko'ra 1,21 millionga yaqin faol kichik biznes sub'ektlari mavjud bo'lib, ularning xolati aholining 1 000 kishisiga 32,1 ta kichik biznes hissasiga to'g'ri keladi"³.

Ushbu statistik ma'lumotlar ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes sub'ektlari nafaqat jahon miqyosda, balki Osiyo mintaqasi davlatlarida ham iqtisodiy o'sish, bandlik va to'qnashuvchan bozor muhitini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, Osiyo davlatlarida kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilish iqtisodiy siyosatlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

TADQIQOT USULLARI

Maqolada tahliliy va qiyosiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, quyidagi ilmiy yondashuvlar qo'llanildi:

kontent-tahlil usulidan Osiyo davlatlarida kichik biznesni moliyalashtirishga oid ilmiy maqolalar, davlat dasturlari va xalqaro tashkilotlar hisobotlarini o'rganish orqali;

qiyosiy tahlil usulidan Hindiston, Xitoy, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Bangladesh va Markaziy Osiyo davlatlarida qo'llanilayotgan moliyalashtirish modellarini solishtirish orqali;

institusional tahlil usulidan davlat, bank va nobank moliya institutlarining kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi rolini baholash orqali;

mantiqiy tahlil usulidan mavjud tajribalar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish orqali foydalanilgan.

Tadqiqotda "qualitative" tahlil usuli ustuvor bo'lib, statistik ma'lumotlar umumlashtiruvchi sifatida qo'llanilgan.

Natijalar (Results). Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Osiyo davlatlarida kichik biznesni moliyalashtirish turli institusional modellar asosida amalga oshiriladi:

davlat kafolatlari asosida moliyalashtirish. Hindistonda davlat tomonidan tashkil etilgan kredit kafolat fondlari kichik biznesning bank kreditlariga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan. Bu model aktiv yetishmasligi muammosini yumshatib, kreditlash hajmini oshirishga xizmat qilmoqda;

mahalliy banklar va ixtisoslashgan moliya institutlari. Xitoyda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda mahalliy banklar yetakchi o'rin tutadi. Ularda kredit berish jarayoni mahalliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilgan bo'lib, kichik tadbirkorlar bilan yaqin aloqa o'rnatilgan;

raqamli moliyalashtirish platformalari. Singapur, Indoneziya va Malayziyada FinTech platformalar orqali kichik biznesga tezkor va nisbatan soddalashtirilgan moliyalashtirish imkoniyatlari yaratilgan;

davlat muassasalari orqali imtiyozli moliyalashtirish. Bangladeshda maxsus tashkilotlar orqali kichik biznesga past foizli kreditlar va biznes ko'nikmalarini oshirish xizmatlari taqdim etiladi;

xalqaro moliya institutlari ishtirokida moliyalashtirish (Markaziy Osiyo). Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlarda xalqaro tashkilotlar ishtirokida kafolat va kredit dasturlari amalga oshirilmoqda.

Osiyo davlatlarida kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlari tahlili natijalariga ko'ra, Hindistonda davlat kafolatlari kichik biznes sub'ektlari uchun bank kreditlariga kirish nisbatan past (<11%), shu sababli davlat kafolat fondlari asosiy moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmidir. Bu model aktiv yetishmasligi muammosini yumshatib, kichik tadbirkorlar uchun riskni pasaytirib beradi.

Xitoyda mahalliy banklar va ixtisoslashgan moliya institutlari samarali hisoblanadi. Mahalliy banklar kichik biznes sub'ektlari uchun kredit taqdim etishda yetakchi hisoblanadi. Ular kichik korxonalar bilan yaqin hamkorlik qilib, an'anaviy bank kreditlari orqali moliyalashtirishni amalga oshiradi. Bu model kredit talablarini qoplashda yuqori samaradorlikka ega.

Janubiy Sharqiy Osiyoda raqamli moliya (FinTech) tadbiriq qilinmoqda. Fintex platformalar orqali kichik biznesga tezkor kredit berish mumkin, ammo raqamli moliya imkoniyatlaridan foydalanish hali ham cheklangan (~7%). Shu bois, bu model kichik biznes sub'ektlari uchun qulay, lekin barcha kichik biznes vakillarini qamrab ololmaydi.

Bangladeshda davlat muassasalari va mikro kreditlar asosiy manba

kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashda imtiyozli past foizli kreditlar va ayollar tadbirkorligiga maxsus grantlar joriy qilingan. Bu davlat siyosati aniq ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga qaratilgan.

Markaziy Osiyoda xalqaro moliya institutlari orqali qo'llab-quvvatlash. Qirg'iziston va Tojikistonda kichik biznes sub'ektlarini moliyalashtirishda davlat va xalqaro hamkorlik asosiy vazifani bajarib kelmoqda. Bu model kreditga kirish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega, lekin ichki moliya institutlari hali rivojlanmagan.

Ushbu tahliliy fikrlarni qiyoslash orqali, Osiyo davlatlarida kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarini chuqurroq o'rganish mumkin. Buning uchun quyidagi 1-jadvalga murojaat qilamiz.

2 <https://stat.gov.kz/en/industries/business-statistics/stat-org/publications/452613>

3 <https://www.uzdaily.uz/en/small-business-in-uzbekistan-accounts-for-over-half-of-gdp-in-2025>

1- jadval. Osiyo davlatlarida kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlari⁴

Mamlakat	Moliyalash-tirish modeli	Moliyaviy manbalar	Xususiyatlari
Hindiston	Davlat kafolatlari	Davlat fondlari, NABARD, SIDBI	Kichik biznes uchun past foizli kreditlar, davlat kafolati krediti bilan qoplangan. Kafolatlar orqali kredit taqsimoti amalga oshirilgana kichik tadbirkorlar uchun risklar kamayadi.
Xitoy	Mahalliy banklar, maxsus moliya institutlari	Shahar banklari	Rivojlangan moliya bozori, an'anaviy kredit jarayonidan foydalanish keng tarqalgan. Mahalliy banklar kichik bizneslarning aktivlarsiz kredit talablarini qoplaydi.
Singapur, Indoneziya, Malayziya	Raqamli moliyalashtirish platformalari (FinTech)	Onlayn platforma kreditlari, mikroqarzlar	Tezkor kredit berish, an'anaviy bank to'siqlarini kamaytiradi. Kichik bizneslar uchun qo'llanish oson, qulay bo'lgan raqamli moliya imkoniyatlari chegaralangan.
Bangladesh	Davlat muassasalari, imtiyozli kreditlar	Microfinance, Grameen Bank	Past foizli kreditlar va kreditga kafolat, ayniqsa, ayollar tadbirkorligi qo'llab-quvvatlanadi.
Qirg'iziston va Tojikiston	Xalqaro moliya institutlari, davlat dasturlari	ADB, EBRD, xalqaro grantlar	Davlat va xalqaro hamkorlik orqali kichik bizneslar qo'llab-quvvatlanadi. Xalqaro dasturlar orqali kafolat va kredit taqdim etiladi.

Mazkur jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, institusional modellar davlat siyosati, moliya bozori rivojlanishi va xalqaro hamkorlik darajasiga bog'liq. Kichik biznesni moliyalashtirishda samarali modellar, xususan, Xitoy va Hindistondagi modellaridir. Chunki ularda davlat kafolatlari va mahalliy banklar orqali keng qamrov ta'minlangan. Boshqa davlatlarda raqamli moliya va xalqaro dasturlar orqali qo'llab-quvvatlash hanz past darajada.

Muhokama (Discussion). Tahlil natijalari ko'rsatdiki, Osiyo mintaqasida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish sohasida ancha katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, ayrim davlatlarda moliyalashtirish ko'rsatkichlari yuqori, boshqalarda esa katta moliyaviy bo'shliqlar kuzatiladi.

1. Kichik biznesning umumiy iqtisodiy ulushi va moliyalashtirish tendensiyasi. Osiyo mamlakatlarida kichik va o'rta biznes umumiy korxonalarning 96% atrofni tashkil qiladi va mehnat bozorida 62% ga yaqin bandlikni ta'minlaydi. Bu korxonalar YalMga taxminan 40% hissa qo'shadi, bu esa ularning mintaqaviy iqtisodiy ahamiyati katta ekanligini ko'rsatadi⁵.

Shu bilan birga, Asia-Pacific mintaqasida kichik va o'rta biznes uchun kreditajratish juda katta bo'shliq sifatida qolmoqda. Jumladan, mintaqa davlatlarida taxminan 2,5 trln AQSh dollari miqdorida kredit yetishmaslik muammosi bor, va bu butun dunyo bo'yicha kichik biznesni moliyalashtirish bo'shlig'i juda katta qismi hisoblanadi⁶. Bu raqamlar Osiyo davlatlarida kichik biznes iqtisodiy jihatdan muhim rol o'ynar ekan, ularning rivojlanishi moliyaviy resurslarga kirish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

2. Bank kreditlashuvi bilan ta'minlash darajasi. Osiyoda banklar kichik biznes uchun asosiy moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Masalan, 2021 yilda Xitoy, Tayvan va Janubiy Koreyada banklar tomonidan kichik va mikrokorxonalarga berilgan kreditlar yillik o'sishni qayd etdi, Xitoyda 2019-2021 yillarda mikrokorxonalarga berilayotgan kreditlar CAGR (Compound Annual Growth Rate - o'rtacha yillik murakkab o'sish sur'ati) 16.4%ni tashkil qildi⁷. CAGR ma'lum bir ko'rsatkichning (masalan, kredit hajmi, daromad, investisiya) belgilangan davr mobaynida yilma-yil bir xil sur'atda o'sgan deb hisoblagandagi o'rtacha yillik o'sish foizini ko'rsatadi. Uni hisoblash formulasi quyidagicha:

bu yerda: $V_{\text{бoши}}$ – boshlang'ich qiymat, V_{oxiri} – yakuniy qiymat, n – yillar soni.

Bundan tashqari, markaziy va G'arbiy Osiyoda 2015-2021 yillar davomida kichik biznes kreditlari YalMning o'rtacha 9.0% ni tashkil etgan bo'lib, ayrim davlatlar (masalan Qirg'iziston) uchun bu ko'rsatkich 19.3% gacha chiqqan⁸. Bu ko'rsatkichlar bozorda moliyalashtirish imkoniyatlari o'sib borayotganini ko'rsatadi, ammo ayrim mamlakatlarda moliyaviy xizmatlar hali ham cheklanganligini anglatadi.

⁴ Муаллиф томонидан тузилган. Манбалар:

⁵ S.Durst, W.Gerstlberger. Financing Responsible Small- and Medium-Sized Enterprises: An International Overview of Policies and Support Programmes. Journal of Risk and Financial Management. 2021, 14, 10. <https://www.mdpi.com/journal/jrfm>

⁶ Asia small and medium-sized enterprise monitor 2023 how small firms can contribute to resilient growth in the pacific post covid-19 pandemic. October 2023. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/919641/asia-sme-monitor-2023.pdf>

⁷ <https://tabinsights.com/article/bank-lending-to-small-businesses-in-asia-pacific-grew-154-in-2021>

⁸ Asia small and medium-sized enterprise monitor 2023 how small firms can contribute to resilient growth in the pacific post covid-19 pandemic. October 2023. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/919641/asia-sme-monitor-2023.pdf>

3. Moliyaviy resurslar va kredit ajratish o'rtasidagi farqlar. Osiyo mamlakatlarining turli iqtisodiy darajasi ularning kichik biznes sub'ektlarini moliyalashtirish ko'rsatkichlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Xitoyda kichik biznes sub'ektlari faoliyatini qo'llab quvvatlash uchun bank kreditlari nisbatan keng bo'lsa ham, aytilishicha, 40 milliondan ortiq kichik biznes sub'ektlarining aksariyati an'anaviy bank moliyalashtirishi modelidan chetda qolgan⁹.

Osiyo taraqqiyot banki ma'lumotlariga ko'ra, "Boshqa Osiyo davlatlarida ham kichik biznes sub'ektlarining kreditlashuvi nisbatan past, xususan jahon bo'yicha bu ko'rsatkich YalMning foizi jihatidan nisbatan kichik bo'lib qolmoqda, xalqaro tajribalarda ham shunday tendensiya qayd etiladi"¹⁰.

Bu farqlar nafaqat iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan, balki kichik biznes sub'ektlariga qo'yiladigan bank talabi, aktivlarsiz kreditlar, kredit reyting tizimlari va moliyaviy savodxonlik darajasi bilan ham bog'liq.

Osiyoda kichik biznes sub'ektlarini moliyalashtirish sohasi ancha rivojlanayotgan bo'lsa ham, hali ham katta moliyaviy bo'shliqlar mavjud. Bank kreditlarining asosiy manba bo'lishi ahamiyatli bo'lsa da, taqdim etilgan kreditlar ko'lami va uning kichik biznes sub'ektlari uchun judacha tashqi resurs kishanlamasi bilan cheklangan holatlar uchraydi. Bu esa aksar kichik biznes sub'ektlarining rivojlanish sur'atini sekinlashtiradi.

Ushbu tahliliy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Osiyo davlatlarida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish yagona universal model asosida emas, balki mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, moliya bozorlari chuqurligi, institusional muhit va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga mos turli modellar orqali amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil qilingan davlatlar tajribasi quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

kichik biznes iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri hisoblanadi. Ammo, uning barqaror rivojlanishi moliyaviy resurslarga yetarli va uzluksiz kirish imkoniyatiga bog'liq. Osiyo mamlakatlarida kichik biznes sub'ektlari YalMning o'rtacha 40 foizini shakllantirishiga qaramasdan, bank kreditlaridan foydalanish darajasi nisbatan past bo'lib qolmoqda;

davlat kafolatlari va mahalliy banklar orqali moliyalashtirish eng samarali institusional modellardan biri hisoblanadi (Hindiston, Xitoy tajribasi). Bu model aktiv yetishmasligi muammosini yumshatadi va banklar uchun riskni kamaytiradi;

raqamli moliyalashtirish (FinTech) platformalari yangi imkoniyatlar yaratayotgan bo'lsa-da, hozircha kichik biznes sub'ektlarining cheklangan qismini qamrab olmoqda. Bu holat raqamli infratuzilma va moliyaviy savodxonlik darajasi bilan bevosita bog'liq;

xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish (Markaziy Osiyo davlatlari) resurslar taqchilligini qisman bartaraf etadi, biroq uzoq muddatli barqarorlik uchun ichki moliya institutlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi;

mintaqaviy farqlar mavjud bo'lib, ular iqtisodiy sharoit, moliya bozorlari rivojlanganligi va davlat siyosatining izchilligi bilan izohlanadi. Shu bois, kichik biznesni moliyalashtirish strategiyasi har bir mamlakat uchun alohida ishlab chiqilishi lozim.

Umuman olganda, Osiyo davlatlari tajribasi shuni tasdiqlaydiki, kichik biznesni moliyalashtirishda kompleks, ko'p manbali va institusional yondashuv eng maqbul hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

davlat kafolat mexanizmlarini kengaytirish va takomillashtirish. Kichik biznes sub'ektlari uchun kredit kafolat fondlarini rivojlantirish, aktiv bilan ta'minlanmagan kreditlar ulushini oshirish banklar uchun riskni kamaytiradi va tadbirkorlar uchun moliyaviy kirishni yengillashtiradi;

an'anaviy bank kreditlari va raqamli moliyani integratsiya qilish. FinTech platformalarni bank tizimi bilan uyg'unlashtirish orqali kichik biznes sub'ektlari uchun tezkor, shaffof va qulay moliyalashtirish kanallari yaratish maqsadga muvofiq;

xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni strategik asosda yo'lga qo'yish. Grant va kreditlardan faqat qisqa muddatli yechim sifatida emas, balki ichki moliya institutlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan mexanizm sifatida foydalanish lozim;

moliyaviy savodxonlikni oshirish va kredit tarixi tizimini rivojlantirish. Kichik biznes sub'ektlarining moliyaviy bilimlarini oshirish kredit risklarini kamaytiradi va banklar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantiradi;

mintaqaviy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish.

9 Yan Shen, Minggao Shen, Zhong Xu, Ying Bai. Bank Size and Small- and Medium-sized Enterprise (SME) Lending: Evidence from China. The Multi-Disciplinary International Journal Devoted to the Study and Promotion of World Development. Volume 37, Issue 4, April 2009, Pages 800-811. <https://www.sciencedirect.com>

10 Asia small and medium-sized enterprise monitor 2023 how small firms can contribute to resilient growth in the pacific post covid-19 pandemic. October 2023. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/919641/asia-sme-monitor-2023.pdf>



Xitoy va Hindiston tajribasidagi samarali mexanizmlarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki milliy iqtisodiy muhitga mos holda adaptasiya qilish muhim;

Kichik biznes uchun maxsus moliya institutlarini tashkil etish. Ixtisoslashgan banklar va nobank moliya institutlari orqali kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash kredit jarayonini soddalashtiradi va moliyalashtirish hajmini oshiradi.

Kichik biznesni moliyalashtirishning Osiyo davlatlari tajribalari shuni ko'rsatadiki, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun davlat, moliya institutlari va xususiy sektor o'rtasida uzviy hamkorlik zarur. Ilmiy asoslangan va milliy sharoitga mos moliyalashtirish modellarini joriy etish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Osiyo davlatlarida kichik biznesni moliyalashtirish sohasidagi tendensiyalar pozitiv bo'lib, ayrim davlatlarda katta o'sish qayd etilmoqda, ammo hatto rivojlangan iqtisodlarda ham ommaviy kreditlashuvda yetarli darajaga yetib bo'lmagan holatlar saqlanib qolmoqda. Shu sababli davlat siyosati, xalqaro hamkorlik, moliyaviy texnologiyalar va raqamli moliyalashtirish platformalarini kompleks ravishda joriy etish kichik biznes sub'ektlari uchun investisiya va o'sish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yan Shen, Minggao Shen, Zhong Xu, Ying Bai. Bank Size and Small- and Medium-sized Enterprise (SME) Lending: Evidence from China. The Multi-Disciplinary International Journal Devoted to the Study and Promotion of World Development. Volume 37, Issue 4, April 2009, Pages 800-811. <https://www.sciencedirect.com>
2. S.Durst, W.Gerstlberger. Financing Responsible Small- and Medium-Sized Enterprises: An International Overview of Policies and Support Programmes. Journal of Risk and Financial Management. 2021, 14, 10. <https://www.mdpi.com/journal/jrfm>
3. Aziza Syzdykova, Gulmira Azretbergenova. Analysis of the Impact of SMEs' Production Output on Kazakhstan's Economic Growth Using the ARDL Method. Economies 2025, 13, 38. <https://www.mdpi.com/>
4. Lukin, E. 2020. Material Audit funding. Available online: <https://www.businessfinland.fi/en/for-finnish-customers/services/funding/material-audit> (accessed on 29 July 2020).
5. Yoshino, Naoyuki, and Farhad Taghizadeh-Hesary. 2018. The Role of SMEs in Asia and Their Difficulties in Accessing Finance. ADBI Working Paper, No. 911. Tokyo: Asian Development Bank Institute (ADBI), Available online: <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/474576/adbi-wp911.pdf> (accessed on 27 October 2020).
6. <https://stat.gov.kz/en/industries/business-statistics/stat-org/publications/452613>
7. <https://www.uzdaily.uz/en/small-business-in-uzbekistan-accounts-for-over-half-of-gdp-in-2025>
8. Asia small and medium-sized enterprise monitor 2023 how small firms can contribute to resilient growth in the pacific post covid-19 pandemic. October 2023. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/919641/asia-sme-monitor-2023.pdf>
9. <https://tabinsights.com/article/bank-lending-to-small-businesses-in-asia-pacific-grew-154-in-2021>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100